

“Bioselvent” sho’r yuvish vositasi

Davlatimizning rahbarining Qoraqalpog’istonga tashrifi chog’ida suv xo’jaligi sohasini rivojlantirish, suv manbalaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo’yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan. Shu maqsadda sho’r yuvish, yer maydonlariga yangi texnologiyalar asosida ishlov berish bo’yicha Qoraqalpog’istonda ko’rgazmali seminar tashkil etildi.

Ushbu seminarda Qoraqalpog’iston, Xorazm, Buxoro, Navoiy viloyatlari soha mutaxassislari, irragatsiya bo’limlari vakillari ishtirok etdilar.



Ko’rgazmali seminarda O’zR FA Bioorganik kimyo instituti vakili ham ishtirok etib, “Bioselvent” sho’r yuvish preparati namoyish etildi hamda uni qo’llash bo’yicha ko’rsatmalar berildi.

